



## YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA BERILAYOTGAN E'TIBOR

**Boltayeva Shoxista Inoyatovna**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 40-son maktabgacha ta'lism tashkiloti direktori  
o'rinnbosari*

**Atamurotova Laylo Ro'zmetovna**

*Xorazm viloyati Shovot tumani 40-son maktabgacha ta'lism tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Barchamizga ma'lumki Yangi O'zbekistonimizda biz kutmagan darajadagi o'zgarishlar ro'y berayotganini yurtdoshlarimiz sezib, ko'rib turibdi. Ayni damda ta'larning poydevori bo'lmish Maktabgacha ta'lism tizimiga davlatimiz tomonidan bir qator tizimli Qonunlar, Qarorlar Farmonlar va Dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lism tizimiga berilayotgan e'tibor haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lism, ahamiyat, qaror, qonun, imkoniyat, texnologiya, ijodiy fikrlash.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lism bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Zero, maktabgacha ta'lism tashkilotida puxta tayyorlanib maktabga chiqqan bolajonlarning yutuqlarga erishish imkoniyati kengayadi. Maktabgacha ta'lism tashkilotiga oid davlat talablarida mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, jahon tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lism tizimida ma'nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam zaruriy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi. Bugungi kunda o'zida ta'lism va tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lism jarayonini tashkil etish oldimizga qo'yilgan dolzarb vazifalarimizdan biridir. Chunki yosh avlodning kelajakda kim va qanday inson bo'lib tarbiyalanishi ham boshlang'ich ta'limga har tomonlama bog'liq bo'ladi. Bekorga umumiyo'rta ta'larning ajralmas qismi yoki yuragi boshlang'ich ta'limga deyilmaydi. Boshlan'ich sinfdan boshlaboq o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangiliklar yaratishga o'rgatish lozim.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan har bir fanlarni hayot bilan bog'lab, undagi muammolarni har tomonidan hal qila olishga o'rgatadigan bo'lsak, o'quvchida ijodiy fikrlash qobiliyatları rivojlanib boradi. Yuqorida fikrlarimizning tasdig'i sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini keltirib o'tishimiz mumkin: "Yoshlarimiz haqli ravishda vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib



borayotgani barchamizga g'urur vaiftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim va tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur".

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzARB sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu mas'uliyatni Universitetlarning Pedagogika fakulteti o'z zimmasiga oladi. Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, bolalarga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi.

Bu sohada zamонавиј талабларга ювоб берадиган илг'ор педагогик усул ва услубларни ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzARB vazifa edi. Ilg'or xorijiy davlatlar va Koreya Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, respublikamizning barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi yo'lga qo'yildi. Uning asosiy maqsadi bolalarni o'qitish emas, balki ularning o'qishga intilishlarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur dastur besh tamoyilni o'zida mujassamlashtirgan. Bular jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o'qish va yozish, aqliy rivojlanish, ijodiy rivojlanish kabilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan "Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi qabul qilinib, hozirda zamонавиј davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faoliy markazlarida ishlash orqali yangi ma'lumotlarni, yangi bilimlarni berib bormoqda. Markazlarda ishslash bolalarda kreativ fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantiradi va dunyoqarashini shakllantirib boradi.

Maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniqa, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi.

Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha



bolalarning muktabgacha ta'limga bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud muktabgacha ta'limga muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni muktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'r ganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'limga sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Bugungi axborot texnologiyalari rivojlanb borayotgan bir paytda yurtimizda ta'limga tizimiga ham yuksak e'tibor qaratilmoqda. Shular qatorida bizning boshlang'ich ta'limga ham. Ta'limga so'zini ishlatsizimiz bilanoq xayolimizga tarbiya degan atamani ham keltiramiz. Bugungi ta'limga zamonaviy talabi ham ana shundan iborat. Ta'limga tarbiya bilan o'zaro birgalikda olib borish boshlang'ich ta'limga sifatini yanada oshiradi. Bu esa, keljakda har tomonlama yetuk, barkamol insonni jamiyatga yetishtirib bera olishning samarali usuli bo'ladi. Bizlar ham bir paytlar muktab o'quvchisi bo'lganmiz. Va, albatta, boshlang'ich sinfda ham tahsil olganmiz.

Eslab qaraydigan bo'lsak, hozirgi jajji bolajonlarga o'xshab, ustozlarimizning etaklariga yopishib olib, ularidan nari ketmas edik ham. Bularning barchasidan shuni tushunishimiz mumkinki, bizlar ham keljakda boshlang'ich sinflarga saboq beradigan ustoz bo'lib yetishamiz, albatta. Shunday ekan bizning zimmamizda juda katta mas'uliyat bor ekanligini har bir lahzada yodimizda tutishimiz zarur bo'ladi. Shuni ham yodimizdan chiqarmasligimiz kerakki, yurtboshimiz siyosatlariga binoan, ta'limga tarbiya bilan birgalikda amalga oshirish kerakligi ham yelkamizdag'i yukni ikki barobar oshiradi.

Muktabgacha ta'limga sohasi uzlusiz ta'limga tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va muktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uzlusiz ta'limga tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan muktabgacha ta'limga tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, muktabgacha ta'limga tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash xamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, muktabgacha ta'limga tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'limga tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'limga dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'nnaviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni muktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Muktobgacha ta'limga tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.



2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash manzilli dasturi to'g'risida. 02.07.2018 y. PQ-3822. 2018 yilda
3. Yangi O'zbekistonda nodavlat maktabgacha ta'lif: kecha , bugun va ertaga. Abdurashit M.
4. Yangi Maktabgacha ta'lif: kecha, bugun , ertaga . Nasiba Erxonova . Ma'rifikat gazetasi.
5. Yangi Maktabgacha ta'lif: kecha, bugun, ertaga. Jonto'rayeva N.